SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 3 - fevral 32-9-124-Q/23 Guliston tumani hokimligi

Guliston tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida sun’iy notekisliklar, hamda yuqori nur qaytaruvchi (Diyotli) yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlari hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infaratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida **qaror qilaman:**

1. Hududdagi aholining murojaati va Guliston tumani ichki ishlar bo‘limining 2022-yil 28-noyabrdagi №40/1993-sonli hamda “Ahillik” MFYning 29-noyabrdagi №02-03/24-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Tumanning “Ahillik” mahallasi hududidagi Turkiston ko‘chasiga yuqori nur qaytaruvchi (diyotli) yo‘l belgilar hamda tuman markazida joylashgan umumta’lim maktablariga piyodalar o‘tish joyiga O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan sun’iy notekisliklarni o‘rnatish tashkil etilsin.

3. Guliston tumani ichki ishlar bo‘limi (Sh.Ibragimov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Muratullayev) hamda tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi boshlig‘i J.Raximqulov, Ahillik mahallasi raisi U.Miltiqbayev bilan birgalikda yuqori nur qaytaruvchi (diyotli) yo‘l belgilari va sun’iy yo‘l notekisliklarini, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda o‘rnatishni ta’minlasin.

4. Mazkur qaror Guliston tumani hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Urinbayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Begimkulov**